

**“O‘ZAVTOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA
Xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha**

YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma “O‘zavtosanoat” AJda (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va qo‘llanmalarni belgilab beradi.

2. Ushbu Yo‘riqnoma korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Jamiyat xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish (keyingi o‘rinlarda – O‘qitish) dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

2-bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari

4. Jamiyat xodimlarini O‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

xolislik va ilmiylik – etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

amaliy jihatdan qulaylik – Jamiyat xodimlarini O‘qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va ularni aniq amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash imkoniyatini nazorat qilinishini o‘z ichiga olishi lozim;

ketma-ketlik va tizimlilik – etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallari, shuningdek Jamiyat xodimlarini o‘qitish tartibi izchil va tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. O‘qitish umumiy tushunchalar va voqeliklardan juz’iylariga, oddiydan murakkabga, boshlang‘ichdan mukammalga va h.k o‘tish asosida amalga oshiriladi;

hammaboplik – O‘qitish Jamiyat xodimlarining joriy bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olish, Jamiyatning barcha xodimlari uchun tushunarli bo‘lgan o‘quv materiallarini shakllantirish;

differensialangan yondashuv – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi o‘qitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga oladi. Korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha ravishda maxsus o‘qitiladi;

o‘qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish – Jamiyat o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek Jamiyat xodimlari tomonidan bilimlar o‘zlashtirilganini tekshirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi.

3-bob. O‘qitishning ustuvor vazifalari

5. O‘qitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarini shakllantirishda Jamiyat xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish uchun mas’ul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Jamiyatning funksiya va tartib-taomillarida paydo bo‘lish shakllari va o‘ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlarini to‘g‘risida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan belgilangan etika va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning axloqiy qadriyatlarini va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy va so‘zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

Jamiyat xodimlarini Jamiyatda amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari, talablari va tartib-taomillari bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor, Jamiyatning etik xulq-atvor qoidalarini buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish.

4-bob. O‘qitishni ishlab chiqish va o‘tkazishga mas’ul shaxslar

6. Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi Jamiyat xodimlarini O‘qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek Jamiyatda bunday o‘qitishni monitoring va nazorat qilish uchun mas’uldir.

7. Jamiyatning Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti (keyingi o‘rinlarda – Komplayens departamenti) Jamiyat xodimlarini O‘qitish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi o‘quv materiallarni ishlab chiqadi, O‘qitish o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi.

8. Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi O‘qitish intizomi va unga doir axborotlar yig‘ilishini nazorat qiladi.

9. Jamiyat Komplayens departamenti va Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi tegishli tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy Jamiyatlar bilan tuzilgan shartnomalar (Jamiyatda belgilangan tartibda) asosida o‘quv materiallarini tayyorlash hamda O‘qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

5-bob. O‘qitish turlari va shakllari

10. O‘qitish quyidagi o‘quv dasturlarini ko‘zda tutishi lozim:
barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish;
Jamiyat xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish;
korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish.

11. Umumiy korrupsiyaga qarshi o‘qitish va Jamiyat tizimi xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

12. Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan o‘rnatilgan taqiqlar, cheklovlar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo‘yilgan talablar, Jamiyat xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo‘llash amaliyotiga doir bilimlar;

olingan bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari, jumladan Jamiyatning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Jamiyatda o‘rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qo‘llay bilish.

Korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yo‘riqnomaga 1-ilovada keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi.

13. Jamiyat xodimlarining etika, xulq-atvor qoidalari bo‘yicha umumiy o‘qitish Jamiyatning barcha xodimlari uchun amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi va Jamiyatda qabul qilingan etika tamoyillari va qoidalariga doir yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki bor bilimlar takrorlanishini ta‘minlashi lozim.

14. Jamiyat xodimlari umumiy korrupsiyaga qarshi o‘qitish va Jamiyat xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari natijalari bo‘yicha o‘rganilgan material qanchalik o‘zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

15. Jamiyat xodimlari savollarning kamida 80 foiziga to‘g‘ri javob bergan taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitish va Jamiyat xodimlarining etik xulq-atvori qoidalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan hisoblanadi. Agar xodim savollarning 80 foizidan kamiga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa, u takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 30 ish kuni ichida topshirishi mumkin.

16. Korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o‘qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o‘qitishdan mustaqil (qo‘shimcha) ravishda o‘tkaziladi.

17. Korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

18. Korrupsiyaviy korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish quyidagilar to‘g‘risidagi ma‘lumotni o‘z ichiga olishi lozim:

korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan aniq funktsiya va tartib-taomillarga xos bo‘lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

Korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan aniq funksiyalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan qo‘shimcha talab va tartib-taomillarni o‘z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

19. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o‘qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (Jamiyatlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o‘tkaziladi.

20. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas’ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchiligidagi o‘zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi ilg‘or xalqaro metodikalarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi lozim.

21. Ushbu Yo‘riqnomaning 19 bandida ko‘rsatib o‘tilgan malaka oshirish va treninglardan o‘tish yiliga kamida 10 (o‘n) soatni o‘z ichiga olishi lozim.

6-bob. O‘qitish muddatlari va davriyligi

22. O‘qitish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o‘qitish, uchinchi shaxslar bilan qo‘shma konferensiyalar, yig‘ilishlar, simpoziumlar o‘tkazilishidan qat’iy nazar amalga oshiriladi.

23. Jamiyat xodimlari etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o‘qitiladi.

24. Jamiyat xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yiliga bir martadan ko‘p o‘qitiladi:

xodim korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimni egallab turgan bo‘lsa;

lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatiga kirs;

Jamiyatda korrupsiyaviy harakatlar bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funksiya/tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi ortganda;

Jamiyat rahbari qaroriga muvofiq.

25. Jamiyatga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o‘tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o‘tgan vaqtdan boshlab

30 kun ichida korrupsiyaga qarshi va Jamiyat xodimlarining etika va xulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitilishi shart.

O'quv sanasini belgilashda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishning tasdiqlangan yillik jadvali, guruhda bo'sh o'rinlar borligi (kunduzgi o'quv shakli uchun) va mazkur Bobning 22-23 bandlarida ko'zda tutilgan o'qitish muddatlari va davriyligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish hamda Jamiyat xodimlarini etika va xulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish barcha xodimlar uchun Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan yiliga bir martadan kam bo'lmagan davriylikda belgilanadi.

26. Xodim korrupsiyaviy xavf darajasi pastdan yuqori bo'lgan lavozimni egallab turgani bilan bog'liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

27. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi har yili O'qitish jadvalini tuzadi va 31-dekabrgacha uni Jamiyat rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

O'qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o'qitish muddatlari hisobga olinadi.

O'qitish jadvalida albatta o'qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o'qitish tayinlangan lavozimlar ko'rsatiladi. Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Xodimlar bilan ishlash boshqarmasining mas'ul xodimlari o'qitish boshlanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda o'qitish imkoniyati bo'lmasa (kunduzgi o'quv shakli uchun, masalan yuqori mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejalashtirilgan ta'til singari asosli sabablar), xodim o'qitish boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay o'qitishni boshqa sanaga ko'chirish maqsadida Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi ogohlantirib qo'yishi lozim.

7-bob. O'qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

28. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi Jamiyat xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitilishiga doir ma'lumotlarni yig'ib boradi va ularni har chorakda Jamiyatning Komplayens departamentiga taqdim etadi.

Jamiyatning Komplayens departamenti olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o'quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallari korrekcirovka qilinishini (zarurat tug'ilganda) ta'minlaydi.

29. Xodim unga tayinlangan o'quv yoki uning natijalari bo'yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o'tmasa, Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

30. O'qitish jadvali, yo'qlama varaqalari, test natijalari, xodim o'qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Xodimlar bilan ishlash boshqarmasida saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

31. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlaridagi o'zgarishlar kiritilganda, korrupsiyaga qarshi o'qitishni tashkil etish sohasidagi ilg'or xalqaro amaliyot o'zgargan taqdirda qayta ko'rib chiqiladi. Jamiyatning Komplayens departamenti mazkur Yo'riqnomaga o'zgartirish kiritish uchun javobgar hisoblanadi.

32. Jamiyat xodimi egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqeyi va boshqa omillardan qat'i nazar mazkur Yo'riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

*“O‘zavtosanoat” AJ xodimlarining etika va
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida
o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha
yo‘riqnomaga ilova*

**Jamiyat tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha
umumiy o‘qitishning
TAXMINIY MAVZULARI**

Mavzu	Komponentlar
Korrupsiyaning tabiati	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot.
Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora-tadbirlar sharhi; Jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyat va vakolatlari; Korrupsiyaviy harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar; Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo‘riqnoma, xabarlarni ko‘rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar	Jamiyatda xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari; Nazorat-ruxsat berish funksiyalari va tartib-taomillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;

Mavzu	Komponentlar
	<p>Sovgʻalar va ishbilarmonlik mehmondoʻstligi belgilari berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan oʻzaro aloqalar bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Xodimlarni Jamiyatga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Xaridlarni amalga oshirish bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Binolarni ijaraga berish bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Oʻzaro hamkorlik va tasarrufi Jamiyatlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Tanlovlar bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Turli hujjat turlari ekspertizasini oʻtkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Jamiyat faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>
<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik</p>	<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik;</p> <p>Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari boʻyicha sud amaliyoti sharhi.</p>
<p>Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati roli</p>	<p>Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida;</p> <p>Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish;</p> <p>Fuqarolik jamiyati institutlarining Jamiyat bilan oʻzaro hamkorligi.</p>